

Muzey bo'ylab moziyga sayohat

Tarixni bilmasdan kelajak yo'q deb bejiz aytilmaydi. Yoshlarimizni yurtimizdagi tarixiy yodgorliklar bilan tanishtirish maqsadida "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti 4 kurs 403 - guruh talabalari bilan guruh rahbari boshchiligida poytaxtimizda joylashgan "Baroqxon" maqbarasiga tashrif buyurishdi.

Tashrif chog'ida talabalar u yerda joylashgan tarixiy yodgorliklar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Undan tashqari talabalar u yerda sayohat qilib yurgan Avstraliya, Italiya va Germaniyadan tashrif buyurgan sayyohlar bilan uchrashib o'zlari tahsil olayotgan oliygohlari to'g'risida keng ma'lumot berishdi va esdalik uchun rasmga tushishdi.



“ Geodeziya va geoinformatika” kafedrasida o'qituvchisi O'tkir Islomov axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov